



ISHLAB CHIQRISH SEKTORIDA RAQAMLI BANKING XIZMATLARINI
TATBIQ ETISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI ("PAYME" TO'LOV
TASHKILOTI VA BIZNES PLATFORMASI MISOLIDA)

Umarova Guzal Gayratovna

Tashkent State University of Economics, DSc, Professor 0009-0006-9421-0640

umarovaguzal79@mail.ru +998909731979

Yo'lchiyeva Nozima Bahodir qizi

Tashkent State University of Economics, Master's student 0009-0006-9421-0640

nozimayulchiyeva01@gmail.com +998900962709

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda raqamli bank xizmatlarining o'rni tahlil qilinadi. Xususan, "Payme" platformasining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, kassa intizomini tartibga solish va tranzaksiyon xarajatlarni optimallashtirishdagi samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot yakunida ishlab chiqarish korxonalarini uchun raqamli moliya mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, fintex, ishlab chiqarish, tranzaksiyon xarajatlar, Payme Business, kassa integratsiyasi, masofaviy banking.

Аннотация: В данной исследовательской работе анализируется роль цифровых банковских услуг в обеспечении финансовой стабильности производственных предприятий. В частности, рассматривается эффективность платформы Payme в автоматизации бизнес-процессов, регулировании денежной дисциплины и оптимизации транзакционных издержек. В заключение исследования предлагаются меры по совершенствованию цифрового финансового механизма для производственных предприятий.

Ключевые слова: Цифровая экономика, финтех, производство, транзакционные издержки, Payme Business, интеграция денежных средств, дистанционное банковское обслуживание.

Abstract: This research paper analyzes the role of digital banking services in ensuring the financial stability of manufacturing enterprises. In particular, the effectiveness of the Payme platform in automating business processes, regulating cash discipline, and optimizing transaction costs is examined. At the end of the study, proposals are made to improve the digital financial mechanism for manufacturing enterprises.

Keywords: Digital economy, fintech, manufacturing, transaction costs, Payme Business, cash integration, remote banking.

Global iqtisodiyotning shiddatli transformatsiyasi ishlab chiqarish korxonalarini oldiga moliyaviy resurslarni boshqarishda yangi talablarni qo'yimoqda. An'anaviy bank xizmatlaridan raqamli ekotizimlarga o'tish nafaqat vaqtni tejash, balki ishlab chiqarishning tannarxini pasaytirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



o'zbekistonda fintex bozorining yetakchilaridan biri bo'lgan "Payme" brendi ostidagi xizmatlar bugungi kunda faqat jismoniy shaxslar uchun emas, balki yirik va o'rta ishlab chiqarish subyektlari uchun ham majmuaviy yechimlarni taklif etmoqda.

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, ayniqsa real sektorni fintex yutuqlari bilan integratsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda "Payme" kabi milliy to'lov tizimlarining korporativ sektorga kirib kelishi, ishlab chiqarish korxonalarini uchun an'anaviy bank to'siqlarini olib tashlash va "shaffof moliya" tamoyilini qaror toptirish imkonini beradi. Raqamli banking mexanizmlari nafaqat to'lovlarni amalga oshiradi, balki korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatish uchun texnik fundament vazifasini o'taydi.

Raqamli banking transformatsiyasini tadqiq etgan olimlarning fikricha, raqamli mexanizmlar korxonalarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, zamonaviy fintech yechimlari korxonaning likvidlik darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish va nazorat etish imkonini beradi. Bu esa rahbariyatga pul oqimlarini tezkor tahlil qilish, moliyaviy xavflarni oldini olish va qarorlar qabul qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida ham raqamli transformatsiya ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rilmogda.

Raqamli banking transformatsiyasini tadqiq etgan olimlarning fikricha, raqamli mexanizmlar korxonalarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, zamonaviy fintech yechimlari korxonaning likvidlik darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish va nazorat etish imkonini beradi. Bu esa rahbariyatga pul oqimlarini tezkor tahlil qilish, moliyaviy xavflarni oldini olish va qarorlar qabul qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida ham raqamli transformatsiya ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rilmogda.

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda statistik ma'lumotlarni yig'ish va interpretatsiya qilish metodlaridan foydalanildi. Amaliy qismda esa "Payme" to'lov tizimining "Business" yo'nalishining ishlab chiqarish korxonalaridagi qo'llanilishi batafsil o'rganildi. "Payme Business" platformasi korxonalar o'rtasidagi B2B va korxonalar bilan iste'molchilar o'rtasidagi B2C munosabatlarda raqamli to'lovlar va moliyaviy xizmatlarni integratsiya qilishda yetakchi yechimlardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish subyektlarida 'Payme' ekotizimining joriy etilishi, korxonaning ichki buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan bulutli texnologiyalar bilan sinxronizatsiya qilish imkonini beradi, bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, raqamli platforma orqali amalga oshiriladigan kassa operatsiyalari korxonaning aylanma mablag'lari monitoringini soddalashtirib, debitorlik qarzlarning shakllanish xavfini keskin kamaytiradi.

Ishlab chiqarish korxonalarida "Payme" xizmatlaridan foydalanish mexanizmi quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:



✓ To'lovlar agregatsiyasi va avtomatlashtirish: Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishda "Payme Checkout" xizmatining joriy etilishi korxonaga tushumlarni to'g'ridan-to'g'ri hisob-kitob raqamiga qabul qilish imkonini beradi. Bu jarayonda inson omili kamayadi, natijada xatoliklar va kassa kamomadi xavfi bartaraf etiladi.

✓ Monitoring va tahliliy hisobotlar: "Payme Business" shaxsiy kabineti orqali ishlab chiqaruvchi korxonaga rahbariyati kunlik, haftalik va oylik savdo aylanmalarini monitoring qilishi mumkin. Bu mexanizm marketing strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

✓ Tranzaksion xarajatlarni kamaytirish: An'anaviy bank o'tkazmalari va naqd pul bilan ishlashga qaraganda, raqamli to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar komissiya to'lovlarning moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu esa mahsulot tannarxidagi ma'muriy xarajatlar ulushini kamaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarida "Payme" ekotizimidan foydalanish quyidagi natijalarni beradi:

Likvidlikni boshqarish: Mablag'larning aylanma tezligi 1.5 baravarga ortadi.

Xavfsizlik: Barcha operatsiyalar P2P va B2B protokollari asosida himoyalangan bo'lib, moliyaviy firibgarlik xavfini minimal darajaga tushiradi.

Mijozlar qamrovi: Raqamli to'lov imkoniyati mavjudligi sababli iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan talabi 20-25% ga o'sishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida raqamli bank xizmatlaridan, xususan "Payme" platformasidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Tavsiyalar:

✓ Ishlab chiqarish korxonalarini uchun "Payme" tizimida maxsus korporativ tariflarni yanada kengaytirish;

✓ Omborxonaga hisobi (ERP tizimlari) bilan "Payme" to'lovlarni to'liq integratsiya qilish;

✓ Xodimlarning ish haqini plastik kartalarga o'tkazishda "Payme" ekotizimidagi bonusli dasturlarni joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079- son.
2. Vahobov A.V. va boshqalar. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". Toshkent - 2022.
3. Payme.uz rasmiy portali va biznes statistikasi ma'lumotlari.
4. Hao J., Peng M., He W. Digital finance development and bank liquidity creation International Review of Financial Analysis. – 2023. – Vol. 90. – Article 102839.



5. Guo P., Zhang C. The impact of bank FinTech on liquidity creation: Evidence from China Research in International Business and Finance. – 2023. – Vol. 64. – Article 101858.
6. Wen W. Digital transformation and liquidity creation in commercial banks: Evidence from the Chinese banking industry PLOS ONE. – 2025. – Vol. 20. – e0318785.
7. Qulmetov M.R. Xalqaro reyting tashkilotlarining oliy ta'lim muassasalariga ta'siri va mavjud platformalar Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – № 11. – B. 515-...